



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTIDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARINING TUTGAN O'RNINI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasuljonova Mohigul Avazbek qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi
mohigulrasuljonova@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 28-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2023 yil

KEY WORDS

uzluksiz, jamiyat, ko'rsatkichlari,
axborot, intellektual, vosita,
metodlar;

ABSTRACT

Pedagogikaga oid adabiyotlarda 40 ga yaqin "Ilg'or pedagogik tajriba" tushunchalari mavjud. Bu tushunchalarning hammasi pedagogik jarayonni maqsadga yo'naltiruvchi, yuqori ko'rsatgichlarga erishishga ta'sir ko'rsatuvchi bir vosita sifatida talqin qilinadi. Ushbu maqolada ham dunyoda rivojlangan davlatlarning ilg'or pedagogik tajribalari xususida so'z boradi.

Fan-texnika va texnologiyaning o'tmishdagi yutuqlari, shubhasiz zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. XX asrning ayniqsa, ikkinchi yarmida fan taraqqiyotining sur'ati o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Bu davrda to'plangan ilmiy ma'lumotlar, insoniyatning butun tarixi davomida to'plangan bilimlar hajmining 3/4 qismidan ortig'ini tashkil etadi. Nazariy va amaliy fanlarda olingan asosiy natijalarning olamshumul yutug'i – kosmos va yadro energiyasining o'zlashtirilishidir. Fan, texnika, texnologiyaning ushbu samarali taraqqiyoti yangi ilm talab ishlab chiqarish jarayonlarini vujudga kelishiga va uzluksiz rivojlanishiga, chiqariladigan mahsulotlar sifatini tubdan yaxshilanishiga va hajmini oshishiga olib keldi. Tabiiyki, ishlab chiqarish usullarining o'zgarishi ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. Jamiyat rivojiga mos ta'lim tizimi shakllanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi va ta'lim tizimiga u tomonidan qo'yiladigan talablar quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchi – fanning o'sib borayotgan o'rnini bilan, XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmida, fanning taraqqiyoti eng yuqori sur'atlarga erishdi. Har 1015 yilda fan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki martadan oshib bordi. Shuning uchun, fanning taraqqiyot qonuni eksponenta qonuniga bo'ysunadi deb, faraz qilinadi.

Ikkinchi – zamonaviy fanlarning ko'chkisimon rivoji 2, 3 va undan ortiq ma'lum fanlar ulanmalarida yangi fanlar paydo bo'lishi bilan ham ta'minlanadi. Masalan: biofizika, biokimyoviy, informatika, fizik-kimyoviy mexanika va ko'pgina boshqa fanlar. Fan "daraxti" paydo bo'ladi. Ma'lum fanlar ulanmalarida paydo bolgan yangi fan, yangi ilmiy yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi – fanning ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Ushbu zamonaviy axborot tizimlaridan samarali foydalanish, asosan individual tarzda ishlash orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, zamonaviy o'qitish

tizimining asosiy o'zagi – o'qitishni individuallashtirish deb hisoblash mumkin. Shuning uchun o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;
- b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish;
- c) o'qitishni individuallashtirish;
- d) uzluksiz bilim olish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni, ijod bilan ishlashni, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liq ekanligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o'sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti. Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Hayot ta'lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo'lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya'ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni oldimizga qo'ymoqda.

Ta'lim muassasasining innovatsion salohiyati deganda, uning o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish uchun madaniy ta'limiy muhitning va shart-sharoitlarning xilma-xilligi hamda kommunikativ munosabatlarning yuqori darajasi tushuniladi. Alohida pedagog uchun esa, bu – uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy o'ziga xosliklar yig'indisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, innovatsion pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o'zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar orasida mustahkam bog'lanishlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Ta'lim amaliyotida “pedagogik texnologiya” tushunchasi uch darajada qo'llaniladi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ta'lim tizimining barcha turlarida qo'llash imkonini beradi.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fani, alohida ta'lim oluvchilar guruhi, ma'lum ixtisoslikka mansub pedagoglarga yo'nalganlikni aks ettiradi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining alohida tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Real ta'lim amaliyoti ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to'liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash bilan bog'liq bir qator muammolar ham ko'zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e'tiborga olish va hal etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ta'lim tizimida qo'llash uchun mo'ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarining yetarli emasligi. Garchi Respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o'quv qo'llanmalar yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, mazkur o'quv qo'llanmalarda oliy ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol metodlar va ularni qo'llashga doir metodik ko'rsatmalar aniq o'z ifodasini topmagan. Mazkur holat pedagog xodimlarining interfaol metodlarni qo'llashga doir ma'lumotlardan to'la xabardor bo'lmasligiga olib kelmoqda. Ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini kuzatish professor-o'qituvchilar keng qo'llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko'rsatadi. Bunday metodlar sifatida Klaster, BBB chizmasi, Aqliy hujum, "Baliq skeleti" chizmasi, "Qanday? diagrammasi" kabilarni aytib o'tish mumkin;

2) Pedagog-xodimlar interfaol metodlarni qo'llashda metodik qoidalarga to'liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o'ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg'ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo'llash lozim. Oddiy bir misol: pedagog-xodimlar, ayniqsa, yosh o'qituvchilar deyarli har bir mashg'ulotida klaster metodini qo'llaydi. Eng qizig'i, mazkur metod orqali o'quv maqsadiga erishish mumkin yoki emasligidan qat'iy nazar undan foydalanish holati ko'p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to'rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma'lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o'tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalanish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo'rin foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg'ulot sifatini pasaytirishga olib keladi;

3) ta'lim texnologiyalarini yaratish uchun pedagog-xodimlar o'quv maqsadlarini pedagogik vazifalarga aylantirish, uni kutiladigan natijaga mos holda aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Barcha mashg'ulotlarning texnologik ishlanmalarini yaratish jarayonida identiv o'quv maqsadlarini vazifalarga aylantirish uchun bir xil fe'l turkumidagi so'zlar (ma'lumot berish, ochib berish, yoritib berish, izohlash kabilar)dan foydalanish o'rinli bo'lmaydi. Buning uchun pedagog-xodimlar Blum taksonomiyasini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Identiv o'quv maqsadlarini o'quv vazifalariga aylantirish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan turib, mashg'ulot jarayonini muvafaqqiyatli loyihalashga erishish mumkin emas;

4) ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish an'anaviy o'qitish tizimining muqobili sifatida xizmat qilishi lozim. Chunki barcha auditoriya mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llashga zaruriyat yo'q. Eng asosiysi, texnologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotida kutilgan natijaga erishilishi lozim. Mazkur jarayonda maqsadga erishishga imkon beruvchi istalgan maqbul metodlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, pedagog-xodimlarning texnologik yondashuvni noto'g'ri talqin etgan holda, ma'ruza mashg'ulotlarini talabalarning o'zlari tomonidan o'tib berilishini talab qilishlari ham maqsadga muvofiq emas. Ma'ruza mashg'ulotiga nisbatan bunday yondashuv uning samaradorligini ta'minlashga to'liq xizmat qilmaydi. Oliy ta'limda o'qitishning asosiy shakli sifatida ma'ruzaga qo'yiladigan metodik, shu jumladan ma'ruzachiga qo'yiladigan talablar mavjud. Mazkur talablarning to'liq bajarilishi pedagog-xodimlar orqaligina samarali amalga oshishi mumkin.

Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish eksperimentlar, texnologlashtirish va ota-onalar va bolalar tomonidan o'quv jarayonida o'zini o'zi boshqarish elementlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sharqiy ta'lim tizimi o'z urf-odatlariga ko'ra "uy ta'limi"ni yoki doktor Sh.Sudzukining "iqtidorlilarni tarbiyalash" guruhli usulini va global ta'lim muammolarini hal qilishda Yaponiyaning "Erta rivojlanish uyushmasi" tomonidan qo'llab quvvatlanishni afzal ko'radilar. U yoki bu g'arbiy yoki sharqiy ta'lim tizimi shunga o'xshash muammolarni hal qiladi. Ba'zi ta'lim dasturlarida bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb qilish, qadriyatlarni birlashtirish, ularni minimal darajaga tushirish deb tushuniladi, bu faqat barcha xalqlar uchun muhim bo'lgan fazilatlarni qamrab oladi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha ba'zi dasturlarda axloqiy tarbiya bo'limi "yo'qoladi" yoki dasturning boshqa bo'limlari "bog'lash ipi" deb nomlangan rejimga o'tadi, hatto o'z maqsadlari va vazifalarini anglamasdan yoki mehnat ta'limi bo'limi (axloqiy tarbiyaning bir qismi sifatida), jismoniy tarbiya (o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish shaklida) yoki ishlab chiqarish faoliyatini (qo'l mehnati shaklida) shakllantiradigan sinflarga ajratiladi.

Barchamizga ma'lum, xorijiy tajribalar, xususan janubiy Koreya tajribalari asosida O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda Maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ishlab chiqildi. Dastur xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan bo'lib ancha mukammal va yangicha yondashuvga asoslangan. Dastur maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutib, boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. "Ilk qadam" o'quv davlat dasturida bolaning kompetensiyalari jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish sohalari orqali rivojlantirilishi ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son. //https://lex.uz/docs/5013007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-son qarori
3. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014.
4. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – B.3
6. Sobirjonovich S. I. malaka oshirish tizimida o'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish // IJTIMOY FANLARDA innovatsion ONLAYN ILMIY jurnal. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 30-38.
7. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.
8. Turg'unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI O 'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 1. – C. 162-164.
9. Soliyev I., Ergasheva D. OUR FAVORITE WAYS TO TEACH FAIRY TALES //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 338-342.

**INNOVATIVE
ACADEMY**